SOLIQ NAZORATINING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	945
<b>Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li</b>	
FISKAL MEKANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI.....	950
<b>Ne'matov Ne'matulla Erkinbojevich</b>	
ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	955
<b>Воронин Сергей Анатольевич, Ахмедова Фазилат Жураевна</b>	
IMPROVING EMPLOYEE MOTIVATION AND DEVELOPING AN EFFECTIVE INCENTIVE SYSTEM IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT.....	962
<b>Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor ugli, Ashurova Jasmina Jo'ra kizi</b>	



O'ZBEKISTONDA KO'P POG'ONALI PENSIYA TIZIMIGA O'TISHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA MOLIVAVIY BARQARORLIK MODELLARI .....	966
<b>Mamatqulova Yayra Dilmurod qizi</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	971
<b>Astanayev Kulmakhammat Sanayevich</b>	
JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUV OMILLARI VA BOSQICHLARI .....	977
<b>Abdullayeva Zulfiya Izzatovna</b>	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA JUST-IN-TIME TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI ...	981
<b>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</b>	
KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING AUDITINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI .....	986
<b>Djumayeva Guzal Axtamovna, Sag'dullayev Abdullo Valijon o'g'li</b>	
XOM ASHYO VA MATERIALLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	990
<b>Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi, Rafikova Aziza Xurshid qizi</b>	
AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI (Navoiy viloyati misolida) .....	994
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b>	
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ORQALI BO'LAJAK MUHANDISLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1000
<b>Ibragimov Suxrob Latifovich</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....	1004
<b>Ismailova Nilufar Sabitdjanovna</b>	
СРАВНЕНИЕ МЕТОДОВ ФОРМОВКИ ТРУБ СРЕДНЕГО И БОЛЬШОГО ДИАМЕТРА .....	1010
<b>Юсупов А.А., Райимкулов С.Х.</b>	
TURIZM XIZMATLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDAGI RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH.....	1015
<b>Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</b>	
DAVLAT GRANTLARI TANLOVLARINI SHAKLLANTIRISHDA KO'P BOSQICHLI IJTIMOYIY MASLAHATLASHUV VA RAQAMLI JAMOATCHILIK ISHTIROKI MEXANIZMINING AHAMIYATI.....	1020
<b>Xasanov Jahongir Botir o'g'li</b>	
PAHTA XOM ASHYOSINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ORQALI QO'SHIMCHA QIYMAT YARATISH.....	1025
<b>Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li, Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI .....	1030
<b>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ И АНАЛИЗА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ «ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ» .....	1036
<b>Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи</b>	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	1040
<b>Гаффоров Шухрат Насриевич</b>	
BANKLARDA ICHKI NAZORAT TIZIMI SAMARADORLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	1047
<b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1054
<b>Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich</b>	



JAHON SAVDO TASHKILOTI TALABLARI DOIRASIDA MAMLAKATIMIZ KORXONALARINING XALQARO RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI.....	1059
<b>Masharipova Manzura Alimbayevna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI....	1067
<b>Dusmatov Begmuxammad Olimjonovich, Mirzaahmedov Mirziyo Ulug'bek o'g'li</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI BIZNES SUBYEKTLARI BIZNES MUHITI RIVOJLANISHIGA DAVLATNING TA'SIRI..	1072
<b>Hazratov Abror Panjiyevich, Muratkulov Xumoyun Dilshodovich</b>	
YASHIL XIZMATLAR SOHASINING MOHIYATI, IJTIMOY-IQTISODIY FUNKSIYASI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI .....	1077
<b>Y.M. Xalikov</b>	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI .....	1085
<b>Ishturdiyev Hasan Abdigapparovich</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	1091
<b>Мухторов М. Н., Каримова А. М.</b>	
«HR BUSINESS PARTNER» КАК ИНСТРУМЕНТ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА .....	1098
<b>Дониерова Фотимабону Алишер қизи</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI UCHUN REAL VAQT REJIMIDA DINAMIK RISK-PROFILGA ASOSLANGAN KREDIT LAYOQATINI BAHOLASHNING ADAPTIV MODELI (DRP-KREDIT MODELI)...	1109
<b>Hamroyeva Sabina Ismoil qizi, Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UNDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
<b>Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li</b>	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
<b>Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich</b>	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	1124
<b>Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
<b>Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
<b>Эгамова Махфурат Эсановна</b>	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
<b>Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис</b>	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	1156
<b>Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna</b>	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
<b>Kodirova Samira Kamol qizi</b>	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI .....	1169
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li</b>	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIKLARINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	1175
<b>Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI .....	1181
<b>Kazakova Zulayho, Saida'zamova Nilufar, Isroilov Shohruh</b>	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
<b>Jalolova Madina Shopo'lat qizi</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА .....	1192
<b>Шермухамедов Акмал Комилжонович</b>	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
<b>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi</b>	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
<b>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</b>	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
<b>Umarov Xasan Sunnatullaevich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII .....	1210
<b>To'rayeva Nafisa Odiljonovna</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	1221
<b>Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li</b>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIIY MEXANIZMLARI.....	1228
<b>Ashurov Furkatjon Shuxratovich</b>	



# AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

**Ashurov Furkatjon Shuxratovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Innovatsion menejment” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda mustaqil direktorlar instituti, KPI asosida baholash tizimi, raqamli korporativ boshqaruv platformalari va ESG tamoyillarining kuzatuv kengashi faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyatidagi mavjud muammolar o'rganilib, korporativ nazorat samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash, investorlar ishonchini mustahkamlash va kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** korporativ boshqaruv, kuzatuv kengashi, mustaqil direktor, korporativ nazorat, KPI tizimi, ESG tamoyillari, raqamli korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati, risk-menejment, korporativ shaffoflik, strategik boshqaruv, investitsiyaviy jozibadorlik.

**Abstract:** This scientific article examines modern mechanisms for improving the effectiveness of supervisory board activities in joint-stock companies. The study analyzes the impact of the independent directors institution, KPI-based evaluation systems, digital corporate governance platforms, and ESG principles on the performance of supervisory boards. In addition, existing challenges in the activities of supervisory boards within joint-stock companies of Uzbekistan are explored, and practical recommendations aimed at enhancing the effectiveness of corporate oversight are developed. The research findings contribute to improving the quality of corporate governance, strengthening investor confidence, and increasing the competitiveness of companies.

**Keywords:** corporate governance, supervisory board, independent director, corporate oversight, KPI system, ESG principles, digital corporate governance, joint-stock company, risk management, corporate transparency, strategic management, investment attractiveness.

**Аннотация:** В данной научной статье исследованы современные механизмы повышения эффективности деятельности наблюдательных советов в акционерных обществах. В исследовании проанализировано влияние института независимых директоров, системы оценки на основе KPI, цифровых платформ корпоративного управления и принципов ESG на деятельность наблюдательных советов. Также изучены существующие проблемы в деятельности наблюдательных советов акционерных обществ Узбекистана и разработаны практические рекомендации по повышению эффективности корпоративного контроля. Результаты исследования способствуют улучшению качества корпоративного управления, укреплению доверия инвесторов и повышению конкурентоспособности компаний.

**Ключевые слова:** корпоративное управление, наблюдательный совет, независимый директор, корпоративный контроль, система KPI, принципы ESG, цифровое корпоративное управление, акционерное общество, риск-менеджмент, корпоративная прозрачность, стратегическое управление, инвестиционная привлекательность.

## KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy taraqqiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligi kompaniyalarning barqaror rivojlanishi, moliyaviy barqarorligi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashishi, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va investitsiyaviy muhitga qo'yilayotgan talablarning ortishi korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini oshirish, korporativ nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.



Korporativ boshqaruv tizimida kuzatuv kengashi kompaniya faoliyati ustidan strategik nazoratni amalga oshiruvchi muhim boshqaruv organi hisoblanadi. Kuzatuv kengashi kompaniyaning rivojlanish strategiyasini belgilash, ijroiya organlari faoliyatini nazorat qilish, korporativ risklarni boshqarish hamda aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi. Shu sababli kuzatuv kengashining samarali faoliyati korporativ boshqaruv sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bozor munosabatlari tobora rivojlanib borayotgan sharoitda investorlar va aksiyadorlar kompaniyalar faoliyatida ochiqlik, hisobdorlik va shaffoflik tamoyillariga katta ahamiyat qaratmoqdalar. Bu esa kuzatuv kengashlari zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Samarali kuzatuv kengashi korporativ qarorlarning asoslanganligini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va korporativ risklarni kamaytirish orqali kompaniyaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon amaliyoti tahlillari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda kuzatuv kengashlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida qator zamonaviy mexanizmlar joriy qilinmoqda. Xususan, mustaqil direktorlar instituti korporativ nazoratning xolis va samarali bo'lishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, KPI (Key Performance Indicators) asosida kuzatuv kengashi a'zolarini baholash tizimi, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari, raqamli korporativ boshqaruv platformalari va elektron nazorat mexanizmlari kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qo'llanilmoqda.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning korporativ boshqaruv tizimiga kirib kelishi kuzatuv kengashi faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatini yaratmoqda. Elektron korporativ boshqaruv tizimlari orqali kuzatuv kengashi yig'ilishlarini onlayn formatda o'tkazish, korporativ ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa boshqaruv tezkorligini oshirish bilan birga korporativ shaffoflikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, korporativ boshqaruv kodeksining joriy qilinishi, mustaqil direktorlar institutini rivojlantirish va korporativ nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini tadqiq qilish, xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy korporativ boshqaruv amaliyotiga moslashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini tadqiq qilish, korporativ nazorat tizimini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilish hamda ularni milliy korporativ boshqaruv amaliyotiga joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kuzatuv kengashi faoliyati va korporativ boshqaruv samaradorligi masalalari zamonaviy iqtisodiy fanning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular korporativ nazorat, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, strategik boshqaruv va korporativ shaffoflikni ta'minlash masalalarini qamrab oladi.

Xususan, Michael Jensen va William Meckling agentlik nazariyasi orqali korporativ boshqaruv tizimida menejerlar va mulkdorlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyatini tahlil qilgan holda, kuzatuv kengashining asosiy vazifasi aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish ekanligini ilmiy asoslab berganlar [1]. Ularning fikricha, samarali kuzatuv kengashi korporativ resurslardan samarasiz foydalanishni kamaytiradi, boshqaruv ustidan mustaqil nazoratni kuchaytiradi va kompaniyaning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

IHTT (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv prinsiplarida kuzatuv kengashining mustaqilligi, hisobdorligi va strategik nazorat funksiyalari alohida ta'kidlangan [2]. OECD tavsiyalariga ko'ra, kuzatuv kengashi kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirish, ijroiya organlari faoliyatini nazorat qilish hamda korporativ risklarni boshqarish jarayonlarida faol ishtirok etishi lozim. Shuningdek, kengash tarkibida mustaqil direktorlar ulushining yetarli bo'lishi korporativ qarorlarning xolisligi va shaffofligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Peter Drucker o'zining ilmiy qarashlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida strategik fikrlash, axborotga asoslangan qaror qabul qilish va samarali liderlik kuzatuv kengashi faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlagan [3]. Uning fikricha, zamonaviy tashkilotlarda kuzatuv kengashi nafaqat nazorat organi, balki strategik yo'nalish beruvchi institut sifatida ham faoliyat yuritishi kerak. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv sohasida ko'plab xalqaro tadqiqotlarda mustaqil direktorlar instituti, korporativ etika, ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari va raqamli boshqaruv tizimlarining ahamiyati alohida o'rganilgan. Bu yo'nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar kuzatuv kengashi faoliyatini zamonaviy talablar asosida



takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyatini takomillashtirish, korporativ nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, mustaqil direktorlar institutini rivojlantirish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari keng o'rganilgan [4]. Ular milliy korporativ boshqaruv tizimida xalqaro standartlarni joriy etish, davlat ulushi mavjud korxonalarda boshqaruv sifatini oshirish hamda investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydilar. Biroq, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar, KPI asosida baholash tizimi, elektron korporativ boshqaruv platformalari va zamonaviy risk-menejment mexanizmlarining ta'siri yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy amaliyot o'rtasidagi farqlarni tizimli tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj ham saqlanib qolmoqda. Bu holat ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlari bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va iqtisodiy jihatdan baholash, korporativ boshqaruv amaliyotini tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan. Shuningdek, xalqaro korporativ boshqaruv tajribasi hamda O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyatining amaliy holati qiyosiy tahlil qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kuzatuv kengashining samarali faoliyati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining barqaror ishlashi, strategik qarorlarning to'g'ri qabul qilinishi hamda kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Samarali tashkil etilgan kuzatuv kengashi nafaqat ijroiya organlari faoliyatini nazorat qiladi, balki korporativ strategiyani shakllantirish, risklarni boshqarish va investorlar manfaatlarini himoya qilishda ham faol ishtirok etadi. Kuzatuv kengashi samaradorligi yuqori bo'lgan kompaniyalarda korporativ shaffoflik darajasi ortadi, moliyaviy ko'rsatkichlar barqarorlashadi va investorlar ishonchi sezilarli darajada mustahkamlanadi. Bu holat korporativ boshqaruv tizimida kuzatuv kengashining strategik institut sifatidagi rolini yanada kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Tahlillarga ko'ra, rivojlangan davlatlarda kuzatuv kengashi faoliyati quyidagi zamonaviy mexanizmlar asosida tashkil etilmoqda:

- mustaqil direktorlar institutini keng joriy etish;
- KPI asosida kuzatuv kengashi a'zolarini baholash;
- raqamli korporativ boshqaruv platformalaridan foydalanish;
- ESG tamoyillari asosida strategik nazorat;
- korporativ risk-menejment tizimini kuchaytirish;
- audit qo'mitalari faoliyatini raqamlashtirish (1-jadval).

### 1-jadval

#### Kuzatuv kengashi samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlari<sup>1</sup>

Mexanizm	Mazmuni	Kutilayotgan natija
Mustaqil direktorlar instituti	Tashqi va xolis ekspertlarni jalb qilish	Obyektiv va adolatli qarorlar
KPI tizimi	Samaradorlikni ko'rsatkichlar asosida baholash	Nazorat va hisobdorlik oshadi
Raqamli platforma	Elektron korporativ boshqaruv tizimi	Tezkor qaror qabul qilish
ESG yondashuvi	Ekologik va ijtimoiy mas'uliyat	Investision jozibadorlik oshadi
Risk-menejment	Korporativ xavflarni tizimli baholash	Moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi
Audit avtomatlashuvi	Ichki va tashqi auditni raqamlashtirish	Shaffoflik va nazorat kuchayadi

1-jadvalda kuzatuv kengashi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy mexanizmlar keltirilgan. Unda mustaqil direktorlar instituti, KPI tizimi, raqamli platformalar, ESG yondashuvi, risk-menejment va auditni avtomatlashtirish kabi usullar asosiy o'rin tutadi. Ushbu mexanizmlar kuzatuv kengashining qaror qabul qilish sifati, nazorat funksiyasi va korporativ shaffoflikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligi bir qator ichki va tashqi omillarga

1 Manba: muallif ishlanmasi.



bog'liq:

- korporativ boshqaruv madaniyati darajasi;
- kuzatuv kengashi a'zolarining malakasi;
- axborot tizimlarining rivojlanganligi;
- mustaqillik darajasi;
- qonunchilik bazasining barqarorligi (2-jadval).

## 2-jadval

### Kuzatuv kengashi samaradorligi va kompaniya natijalari o'rtasidagi bog'liqlik<sup>2</sup>

Ko'rsatkich	Past samaradorlikda	Yuqori samaradorlikda
Moliyaviy barqarorlik	Nobarqaror	Barqaror va o'suvchan
Investorlar ishonchi	Past	Yuqori
Risk darajasi	Yuqori	Nazorat qilingan
Qaror qabul qilish	Sekin va noaniq	Tez va asoslangan
Korporativ shaffoflik	Cheklangan	Yuqori darajada

2-jadvalda kuzatuv kengashi samaradorligi bilan kompaniyaning umumiy moliyaviy va boshqaruv natijalari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan. Unga ko'ra, yuqori samaradorlik sharoitida moliyaviy barqarorlik, investorlar ishonchi va korporativ shaffoflik yuqori bo'ladi, risklar esa minimallasadi. Aksincha, past samaradorlikda qarorlar sifati pasayadi, risklar ortadi va kompaniyaning umumiy rivojlanishi sekinlashadi.

Olib borilgan tahlillar asosida shu xulosaga kelindiki, aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etish kuzatuv kengashi faoliyati va umuman korporativ boshqaruv tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keladi. Bunday yondashuv kompaniya faoliyatining barcha yo'nalishlariga — strategik boshqaruvdan tortib kundalik nazorat jarayonlarigacha — ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Avvalo, korporativ nazorat tizimi sezilarli darajada kuchayadi. Bu esa kuzatuv kengashining ijroiya organlari faoliyati ustidan samarali nazorat olib borishi, moliyaviy va boshqaruv qarorlarining shaffofligini ta'minlashi hamda korporativ resurslardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish imkonini beradi. Natijada kompaniya ichida ichki nazorat mexanizmlari mustahkamlanadi va boshqaruvdagi ehtimoliy suiiste'mollar kamayadi.

Ikkinchidan, strategik qarorlar sifati yaxshilanadi. Zamonaviy mexanizmlar, jumladan, raqamli tahlil tizimlari va KPI asosida baholash usullari kuzatuv kengashiga qaror qabul qilishda aniq va ishonchli ma'lumotlarga tayanish imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishda xatolar ehtimolini kamaytiradi va kompaniyaning bozordagi mavqeini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, korporativ risklar sezilarli darajada minimallasadi. Risk-menejment tizimlarining takomillashuvi, raqamli monitoring vositalari va mustaqil nazorat mexanizmlari orqali moliyaviy, operatsion va strategik xavflarni oldindan aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa kompaniyaning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, investorlar ishonchi ortadi. Korporativ shaffoflikning oshishi, hisobdorlik mexanizmlarining kuchayishi va qaror qabul qilish jarayonlarining ochiqligi investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, yangi kapital oqimlarini jalb qilish imkonini kengaytiradi.

Beshinchidan, moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi. Samarali kuzatuv kengashi kompaniyaning resurslarini oqilona boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va daromadlilikni oshirishga xizmat qiladi. Bu esa uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va barqaror o'sishni ta'minlaydi.

Ayniqsa, tahlillar natijasida shu aniqlandiki, kuzatuv kengashi samaradorligini oshirishda uchta asosiy omil alohida strategik ahamiyatga ega:

Mustaqil direktorlar instituti — qarorlarning xolisligi va obyektivligini ta'minlaydi, manfaatlar to'qnashuvini kamaytiradi hamda korporativ nazoratni kuchaytiradi;

KPI asosida baholash tizimi — kuzatuv kengashi a'zolarining faoliyatini aniq mezonlar orqali baholash imkonini berib, samaradorlik va hisobdorlikni oshiradi;

Raqamli korporativ boshqaruv tizimlari — qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, ma'lumotlarni markazlashtiradi va korporativ shaffoflikni ta'minlaydi.

Ushbu omillarning uyg'un holda joriy etilishi aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi hamda korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini oshirish korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruv mexanizmlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish korporativ nazoratni kuchaytirish, strategik qarorlar sifatini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Kuzatuv kengashlarida mustaqil direktorlar ulushini oshirish;
2. KPI asosida kuzatuv kengashi a'zolarini baholash tizimini joriy etish;
3. Elektron korporativ boshqaruv platformalarini keng joriy qilish;
4. ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv amaliyotiga integratsiya qilish;
5. Kuzatuv kengashi a'zolari uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish;
6. Korporativ risk-menejment va ichki audit tizimini kuchaytirish;
7. Axborot shaffofligini ta'minlash maqsadida raqamli disclosure tizimlarini rivojlantirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, korporativ nazoratni kuchaytirish va milliy iqtisodiyotda investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jensen M., Meckling W. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure. — Journal of Financial Economics, 1976.
2. OECD Principles of Corporate Governance. — Paris: OECD Publishing, 2015.
3. Drucker P. F. Management Challenges for the 21st Century. — New York: Harper Business, 1999.
4. Ismailov A.R. "Korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyoti" — Toshkent: Darslik. – T.: OOO "DIADEMA NUR SERVIS", 2025. 350 b..
5. N.T. O'rmonov., A. Ismailov. "Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot". O'quv qo'llanma. "IQTISODIYOT" nashriyoti, 2019 yil, 256 bet.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)